

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"
Rektor Sh. Sirojiddinov
2022-yil " " -avgust

"YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI"

fanining o'quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110 000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (rus tili) 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (nemis tili) 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (fransuz tili) 60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) 60230600 – Noshirlik ishi 60230700 – Amaliy filologiya 60230800 – Kompyuter lingvistikasi 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik

Bilim sohasi:	300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi:	310 000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60311000 – Sotsiologiya

Fan/modul kodi 302YO'S 1 4		Fan/modul turi <u>majburiy</u>		Ta'lim tili <u>o'zbek</u>		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023				
Semestr	Har bir semestrda fan/modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
1	Yangi O'zbekiston strategiyasi	2	2	30	16	14	0	0	30	60
	Jami:	2	2	30	16	14	0	0	30	60

1. FANNING MAZMUNI

Yangi O'zbekiston strategiyasi ta'lim tizimida islohotlar fani barcha Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar barcha oliy ta'lim mutahassisligi ta'lim yo'nalishida talabalarga ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishni, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tub ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy islohotlar, harakalar va taraqqiyot strategiyasi bo'yicha bugungi kundagi jarayonlarda zaruriy bilimlarni beradi.

Mazkur fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda Yangi O'zbekiston strategiyasining maqsad va vazifalari, asosiy yo'nalishlarini tushuntirishdan iborat. Milliy taraqqiyotining yangi bosqichidagi “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformasiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini takomillashtirish kabi jarayonlarning tub mohiyatini anglash va islohotlarni amalga oshirishda shaxsiy mas'uliyatni shakllantirishdan iborat.

Mazkur fanni vazifasi - O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun mohiyatini, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning asosiy yo'nalishlarini, ularni amalga oshirish mexanizmlarini tushuntirish; fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma'naviy asoslari to'g'risidagi tasavvurlarini boyitishdan iborat.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

– O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida “Harakatlar strategiyasidan -Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yetti ustivor yo'nalishdan iborat 2022-2026 yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va uni “Inson qadrini ulug'lash va faol

mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturidagi turli sohalardagi yangilangan yangi maqsadlar buyicha **tasavvurga ega bo‘lish**;

– Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimidagi islohotlar qolaversa, ilgari surilgan “Inson qadri uchun” konseptual g‘oyalarining mazmun mohiyati va O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishda belgilangan asosiy yo‘nalishlar va vazifalarni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

– O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida olib borilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha o‘z takliflarini bera olishi, mamlakatimiz erishayotgan yutuqlar va ularning xalqaro miqyosda e’tirof etilishini tahlil qila olish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak**.

3. O‘QUV FANI O‘QITILISHI BO‘YICHA USLUBIY KO‘RSATMALAR

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;

4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish;

Talaba bilimni baholash kredit-modul tizimiga muvofiq ishlab chiqilgan Nizom asosida amalga oshiriladi. Oraliq va yakuniy nazorat turlari, shakllari va soniga keyingi semestrlar davomida kafedra yig‘ilishi qarorlariga asosan o‘zgartirish kiritish huquqi beriladi. Nazoratlarning o‘tkazilishi muddatlari muyyan o‘quv yilida tasdiqlangan o‘quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

Nazorat turi	OB	YB
Nazorat shakli	test*	test*

Oraliq baholash: fanning ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari qismiga tegishli teng yarmi o‘tib bo‘lingandan so‘ng OB olinadi. Bunda o‘tilgan mavzularga doir 30 tadan test savollari variantlari tarqatiladi.

*Izoh. Test variantlari javoblari quyidagi mezon bo‘yicha baholanadi:

0-16 tagacha to‘g‘ri javob – “2” (**qoniqarsiz**);

17-21 tagacha to‘g‘ri javob – “3” (**qoniqarli**);

22-25 tagacha to‘g‘ri javob – “4” (**yaxshi**);

26-30 tagacha to‘g‘ri javob – “5” (**a’lo**).

Yakuniy baholash o‘tilgan barcha mavzular bo‘yicha tuzilgan variantlar asosida o‘tkaziladi. Bunda har bir talabaga semestr davomida o‘tilgan mavzular

bo'yicha 3 tadan nazariy yozma savol variantlari tarqatiladi. Talaba yozgan javobining har biridan maksimal 5 baho to'plash imkoniyatiga ega. Umumiy baho o'rtacha arifmetika asosida chiqariladi.

*Izoh. Yakuniy nazoratdagi har bir savol va topshiriqlar quyidagi baholash mezonlari bo'yicha baholanadi:

Talabalar bilimni baholash mezonlari

a) **“5” (a'lo)** baho uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Xulosa va qaror qabul qilish;
- Ijodiy fikrlay olish;
- Mustaqil mushohada yurita olish;
- Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

b) **“4” (yaxshi)** baho uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Mustaqil mushohada yurita olish;
- Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

v) **“3” (qoniqarli)** baho uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

g) talabanning bilim darajasi **“2” (qoniqarsiz)** deb quyidagi hollarda baholanadi:

- Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- Javoblarda xatoliklarga yo'l qo'yilganlik;
- Bilmaslik.

Izoh: Nazorat turlari, shakllari va soniga keyingi semestrlar davomida kafedra yig'ilishi qarorlariga asosan o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

1-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari:

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1	1-mavzu: Yangi O'zbekiston: Xarakatlar strategiyasidan - taraqqiyot strategiyasi sari.	O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi - milliy taraqqiyotimizning bosqichi. "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun", "Xalq davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi" konseptual g'oyalarini – Yangi O'zbekiston strategiyasining yangi zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida " Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" dasturiy g'oya asosida islohotlarni hayotga tadbiiq etish.	2
2	2-mavzu: Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.	Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining unstitusional asoslarini zamon talabiga moslashtirish. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilshga yo'naltirish" tamoyili asosida transformasiya qilish. Ixcham, professional, profesional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish, Davlat boshqaruv tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish. Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada oshirish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy jrosini ta'minlash. Elektron hukumat tizimini rivojlantirish va byurokратиyani bartaraf etish. Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, xalq bilan muloqot mexanizmlarini takomillashtirish. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.	2
3	3-mavzu: Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning	Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash, qonun ustuvorligi va konstitusiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezonini sifatida belgilash.	2

	<p>eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.</p>	<p>Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yaratish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish, aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish, faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish.</p>	
<p>4</p>	<p>4-mavzu: Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash.</p>	<p>Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirish.</p> <p>Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish, «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20% ga oshirish.</p> <p>Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko'tarish, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish, suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish, chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, hududlarning muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish, mahalliy sayyohlar va xorijiy turistlar sonini oshirish, transport tizimini rivojlantirish.</p>	<p>2</p>
<p>5</p>	<p>5-mavzu: Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.</p>	<p>Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish va byudjet mablag'larining maqsadli hamda samarali sarflanishini ta'minlash, maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish,</p>	<p>2</p>

		<p>2026 yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqish.</p> <p>Maktablarda ta‘lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta‘lim sifatini oshirish, 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta‘lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash, «El-yurt umidi» jamg‘armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish, global innovasion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish, aholi ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish, ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish, tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish.</p> <p>Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarini tashkil etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish, xotinqizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash, Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.</p>	
6	<p>6-mavzu: Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.</p>	<p>Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda «Kitobsevar millat» umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish, tasviriy va amaliy san‘at hamda dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish, madaniyat va san‘at sohalarini yanada rivojlantirish, milliy kino san‘atini rivojlantirish,</p>	2

		O'zbekiston tarixini o'rganish, targ'ib qilish va tarixiy badiiy asarlar yaratish.	
7	7-mavzu: Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.	<p>Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.</p> <p>Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali kambag'allikni qisqartirish, Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migrasiyasini ta'minlash hamda samarali migrasiya siyosatini yuritish, «Vatandoshlar» jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o'rnatish, pandemiyalarga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish.</p>	2
8	8-mavzu: Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.	<p>Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada kafolatlash, davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, qurolli kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi yaqin hamkorliklarni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish, O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish, Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.</p>	2
		Jami:	16

2. Seminar mashg'ulotlar

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydilar hamda yanada boyitadilar. Bunga jamoa bo'lib mashq qilish yo'li bilan va mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni, uslubiy qo'llanmalarni, tarqatma va ko'rgazmali ashyolarni ahamiyati kattadir. Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

№	Seminar mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1	1-mavzu:	Yangi O'zbekiston: Harakatlar strategiyasidan - taraqqiyot strategiyasi sari.	2
2	2-mavzu:	Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.	2
3	3-mavzu:	Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.	2
4	4-mavzu:	Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash.	2
5	5-mavzu:	Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.	2
6	6-mavzu:	Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.	2
7	7-mavzu:	Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.	2
		Jami:	14

2. Mustaqil ta'lim ishlari

Ta'lim jarayonida innovasion texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzluksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- mavzular bo‘yicha referat tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash;
- fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotasiya yozish va boshqalar.

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	O`quv mashq`ulot turlari	Kalit so`zlar	soat
1	O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”ning maqsadlari.	Taqdimot tayyorlash	Yangi O‘zbekiston	2
2	O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”ning asosiy yo‘nalishlari.	Taqdimot tayyorlash	asosiy yo‘nalishlar	2
3	Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali halqparvar davlat barpo etishning maqsadlari.	Ma`ruza tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2
4	Mahalla instituti faoliyatining samaradorlini oshirishdagi maqsadlardan foydalanish.	Referat tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2
5	Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo‘yicha belgilangan vazifalar.	Taqdimot tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2

6	Mahalliy davlat hokimiyati organlari.	Ma`ruza tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2
7	Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi.	Taqdimot tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2
8	Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar.	Esse tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2
9	Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorliklarni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish.	Referat tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2
10	Xalqaro munosabatlarda tashqi siyosat konsepsiyasining o`rni.	Taqdimot tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2
11	O`zbekistonda tashqi siyosat konsepsiyasidagi belgilangan ustivor yo`nalishlar.	Taqdimot tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2
12	O`zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish.	Ma`ruza tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2
13	Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo`lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish.	Referat tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2
14	Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.	Taqdimot tayyorlash	belgilangan maqsadlar	2

15	Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish islohotlari.	Referat yoki taqdimot tayyolash	belgilangan maqsadlar	2
----	--	---------------------------------	-----------------------	---

7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
5. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.
6. O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.07.2020 y., 06/20/6017/1021-son) www.lex.uz.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Yangi O'zbekistonda erkin farovon yashaylik.- (O`quv qo`llanma). - Toshkent, UzMU, 2022.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyun', PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyun', PQ-290-son "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.

Axborot manbaalari:

Internet saytlar

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz –Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.edu.uz–Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
4. www.uzedu.uz –Xalq ta'limi vazirligi sayti.
5. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
6. www.ziynet.uz.
7. www.google.uz
8. www.tdpu.uz

8. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022 yil "29" "08" "dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

I.Aslonov  (imzo)

Tuzuvchi:

K.Abdurazakova  (imzo)

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi.

Taqribchilar:

TKTI "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasi s.f.d., professor O.O.Sirojev

 (imzo)

ToshDC LAU "Jismoniy va yuridik shaxslar murojatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi" boshlig'i, s.f.n R.A.Umurzakova

 (imzo)